

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**ISMAILOV ALISHER ABDULXAYEVICH**

**PAXTANI QURITISH VA TOLA TOZALASH TEXNOLOGIYASINI**  
**TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY VA AMALIY ASOSLARI**

**05.06.02 – “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish”**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent-2026**

**Texnika fanlari doktori (DSs) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSs)  
по техническом наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)  
on technical sciences**

**Ismailov Alisher Abdulxayevich**

Пахтани quritish va tola tozalash texnologiyasini takomillashtirishning  
Ilmiy va amaliy asoslari.....3

**Исмаилов Алишер Абдулхаевич**

Научно и практические основы совершенствования технологии сушки хлопка  
и процесса очистки волокна.....33

**Ismailov Alisher Abdulxayevich**

Scientific and practical foundations for improving cotton drying technology  
and the fiber cleaning process.....64

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....68

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**ISMAILOV ALISHER ABDULXAYEVICH**

**PAXTANI QURITISH VA TOLA TOZALASH TEXNOLOGIYASINI**  
**TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY VA AMALIY ASOSLARI**

**05.06.02 – “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish”**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent-2026**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.DSc/T978 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ttesi.uz](http://www.ttesi.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Sherqul Sherg'oziyevich Xakimov**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Matismailov Saypilla Loloshboyevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Egamberdiyev Fazliddin Otaqulovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Akramov Alisher Ashuraliyevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**


**Namangan Davlat texnika Universiteti**


Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 21 may soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona). Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp\_info@edu.uz.


Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (296-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 07 may kuni tarqatildi.  
(2026 yil 07 maydagi 296-raqamli reyestr bayonnomasi).



  
**X.H.Kamilova**  
ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

  
**A.Z.Mamatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

  
**S.L.Matismailov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi o'rinbosari, t.f.d., professor

## **KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon to‘qimachilik sanoatida paxta tolasi ishlatilishi bo‘yicha umumiy tola miqdorining 50-60 foizini tashkil etadi. Paxta to‘qimachilik sanoatini borqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun barcha paxta yetishtiruvchi davlatlarda paxta tozalash texnika va texnologiyalarini takomillashtirish va energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika uskunalarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida asosiy paxta tolasini yetishtiruvchi davlatlar Xitoy, AQSH, Braziliya, Xindiston, O‘zbekiston, Turkiya, Indoneziya va Avstraliya hisoblanadi. Yetishtirilgan paxta xomashyosini qayta ishlash jarayonini sifatli amalga oshirishda yangi zamonaviy energiya va resurstejamkor uskunalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan paxtani qayta ishlash uchun ish sifatini yuqori hamda energiya-resurstejamkor texnika va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxtani dastlabki ishlash texnika, texnologiyasi va ularning ilmiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, paxtani quritish va tola tozalash texnologiyasini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslarini yaratish, uskunalarining ishchi qismlari konstruksiyasini va ratsional texnologik ko‘rsatkichlarini aniqlash muhim ilmiy vazifa sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, paxta xomashyosini qayta ishlash sohasidagi texnologik siyosatni qayta ko‘rib chiqish, samarali texnologiyalarni ishlab chiqish, olinadigan mahsulot sifatini saqlab qolgan holda texnologik jarayondagi uskunalar sonini kamaytirish, turmush farovonligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsata oladigan klaster tizimi keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Respublikada keng turdagi sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qililib, bunda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish..” vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifani amalga oshirish, jumladan paxtani yetishtirishdan boshlab, dastlabki ishlash va yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ishlab chiqarishni integrasiya qilishni nazarda tutuvchi rivojlanishning klaster modelini amalga oshirish, mahalliy xomashyolardan foydalanilgan holda raqobatbardosh va sifatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va ishlov berishning samarali jihozlari va texnologiyalarini yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirligi Mahkamasining 2020 yil 22-iyundagi VM-398-son «Paxta xomashyosini yetishtirish va qayta ishlash kooperasiyalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi, 2020-yil 14-yanvardagi 21-son "Respublika hududlarida paxta xosili terimini mexanizasiyalash darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2020-yil 22-iyundagi 397-son "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II."Energetika, energiya va resurstejamkorlik" yo'nalishiga mos keladi.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Jahonda paxta va paxta sanoati uchun yangi zamonaviy resurstejamkor texnologiya va texnikalar ishlab chiqish, paxtani saqlash, paxtani quritish, tozalash va jinlash jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha jahonning bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va kompaniyalari jumladan "Platt Lummus", "Cotton reseach and devolepment corporation", "Continental Eagle Corporation", "Continental Murray", "Moss-Gorden Continental", "Lummus High Volume Tower", "National Research Center for cotton processing engeyeniring and technology", "China Cotton Industries Limited", "Handan Golden Lion", "Cotton Research Institute of Nanjing Agricultural University" kabi kompaniyalar keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirimoqda.

Paxtani quritish hamda paxta tolasini tozalash texnologiyasi va uskunalari yaratish, paxtani quritish va tolali materiallarni tozalash samaradorligini oshirish bo'yicha jaxonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagilarga erishilgan: paxtani quritish uchun ikki bosqichli quritish usuli tavsiya etilgan, bunda ikkinchi bosqichda quritish agentining harorati va hajmi sezilarli darajada kamayishi aniqlangan. Ikkinchi bosqichda turbulent quritish usulidan foydalanilgan "Lummus High Volume Tower" (AQSH), mashina terimi paxtalari uchun minorali quritgichlarni ishlash rejimlari aniqlangan "China Cotton Industries Limited" (China), paxtani quritish uchun 24 ta javonli minorali quritgich tavsiya etilgan bo'lib, javonlar soni 11 tadan 24 tagacha bo'lishi mumkin, javonlar oralig'i 0,27 metrni tashkil etadi. Javonlar soni 19 tadan 20 tagacha bo'lganda, kengligi 1,82 m va uzunligi 3,35 m ni tashkil etadi. Bu quritgichda havo sarfi daqiqasiga 0,16 -0,192 m<sup>3</sup> ni tashkil etadi va quritish agenti harorati ancha past bo'ladi "Continental Murray" (AQSH). Barabanli quritish uskunalari tadqiqi natijasida paxta xomashyosini quritish jarayonlari va quritish intensivligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganib chiqilgan. Tadqiqotlar natijasida babarabanda namlik ajratishni yetarli darajada emasligining asosiy sabablaridan biri quritish jarayonini va quritish kameralaridagi gidrodinamik holatining mukammal emasligi hamda paxtaning titilganlik darajasi pastligi kabi omillar ekanligi hulosa qilingan.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli Farmoni

Hozirgi kunda jahonda energiya-resurstejamkor texnika va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuning uchun jahonda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari, paxtani qayta ishlash uchun ish sifatini yuqori hamda paxtani qayta ishlash texnika, texnologiyasi va ularning ilmiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. Ushbu yo‘nalishda, paxtani quritish va tola tozalash texnologiyasini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslarini yaratish, uskunalarining ishchi qismlari konstruksiyasini va ratsional texnologik ko‘rsatkichlarini aniqlash muhim ilmiy vazifa sifatida qaralmoqda.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahonda va respublikamizda paxta tozalash sanoatini rivojlantirish uchun ko‘plab olimlar ish olib borishgan va hozirda xam bu ishlar davom etmoqda.

Jumladan jaxonda ushbu yo‘nalishda xorij olimlaridan N.I.Kolchin, A.M.Martinenko, W.Pampel, F.Reiner, R.V.Baker, R.M.Sutton, P.A.Boving va boshqalar tomonidan, Respublikamizda esa G.V.Bannikov, A.I.Uldiyakov, G.L.Gamburg, A.Z.Mamatov, R.V.Korabelnikov, G.I.Miroshnichenko, A.P.Parpiyev, X.K.Tursunov, A.E.Lugachev, SH.SH.Xakimov, R.Z.Burnashev, G.I.Boldinskiy, A.Q.Usmonqulov, Y.S.Kotov, D.A.Kotov, X.T.Axmedxodjeyev, A.I.Krigin va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Ular tomonidan paxtani quritish, tozalash, tola tozalash bo‘yicha takomillashgan texnologiyalar va uskunalar ishlab chiqilgan, ularning asosiy texnologik ko‘rsatkichlari, ishlash tartiblari, ishchi qismlari va samaradorliklari o‘rganilgan. Tahlillar mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanuvchilar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari yetarli emasligi, tola sifatini saqlagan holda paxtani dastlabki ishlash muammosi to‘liq hal etilmagan va tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmaganligini ko‘rsatdi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutini ilmiy tadqiqot ishlar rejasining №OT-A3-09 “Paxtani quritish va tozalash samaradorligi yuqori bo‘lgan resursatejamkor yangi texnologik uskunani ishlab chiqish” ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Yuqori sifatli tola olish maqsadida, paxtani quritish va tolasini tozalash texnologiyasi va uskunalarini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- paxtani quritishda issiqlik sarfini va issiqlik yo‘qolishini tahlil qilish;
- paxtani quritish uskunasini takomillashtirish hisobiga resurstejamkor texnologiyani ishlab chiqish;
- takomillashtirilgan paxtani quritish uskunasining ratsional qiymatlarini, nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida ishlab chiqish;
- takomillashgan quritish uskunasida paxta harakati qonuniyatini ishlab chiqish;

tola tozalash uskunalarida tola va uskunaning ishchi qismlarini o'zaro ta'sirini o'rganish;

tolani tola tozalash uskunalarning ishchi qismlari bilan o'zaro ta'sir jarayonini nazariy va amaliy o'rganish asosida, tola tozalash uskunasi takomillashtirish;

takomillashtirilgan tola tozalash uskunasining texnologik va konstruktiv ko'rsatkichlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida paxtani tasmali quritish hamda paxta tolasini tozalash uskunalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida paxtani quritish hamda tola tozalash jarayonlari olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada quritish nazariyalari, issiqlik namlik almashuv qonuniyatlari, jismlarni bir biri bilan urilishidagi muloqot qonuniyatlari, tadqiqot natijalarni tajribaviy natijalar bilan qiyoslash, tajribalarni rejalashtirishning matematik-statistik qayta ishlash, matematik hisoblash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

paxtani quritish uchun yuqori energo va resurstejamkorlik ko'rsatkichlariga ega tasmali quritish uskunasi takomillashtirilgan, uning geometrik (tasmaning uzunligi 3200 mm, eni 1400 mm), kinematik (tasmaning tezligi) va texnologik ko'rsatkichlarining ratsional qiymatlari aniqlangan;

paxtaning namligini, quritish harorati, uskunaning ish unumdorligi va paxta qatlami qalinligiga bog'liqlik qonuniyatlari to'liq omilli tajriba usuli asosida ishlab chiqilgan hamda uskunaning ish unumdorligini tasmauning uzunligi va tezligiga bog'liqlik tenglamalari kichik kvadratlar usuli yordamida aniqlangan;

takomillashgan quritish uskunasida paxtani quritish jarayonining matematik modeli tuzilgan va uskunasining muqobil ko'rsatkichlari ko'p omilli regression modellarini tahlillari asosida aniqlangan hamda quritish uskunasining quritish rejimlari ishlab chiqilgan;

paxta tolasining tozalagich ishchi qismlari bilan yuqori tezlikdagi o'zaro ta'sirlashuvdagi zarba jarayonini o'rganish natijasida, turli tolalar uchun deformatsiyaning kuchlanishga bog'liqligi, tolalarga ta'sir qiluvchi kuchning o'zgarishini tolalar massasini turli xil qiymatlarida tola tutamiga kirish chuqurligiga bog'liqliklari olingan, paxta tolasini uchun plastik deformatsiya boshlanadigan to'qnashuv tezligi 57,6 m/s ekanligi aniqlangan;

tola tutamini tozalagich arra tishlari bilan o'zaro ta'sirini o'rganish natijasida, arrali baraban tishi old qiyalik burchagining tola tutami massasiga bog'liqliklari olingan, tola tutamini bir kolosnikdan ikkinchisiga urilib o'tishida arra tishi bo'ylab siljish bo'lmasligi va tola tushib ketmasligi uchun, tola tutamining tish bo'ylab ruxsat etilgan harakatlanishi tenglamasi asosida kolosniklar qadamini  $H_k = 30 \div 35$  mm oralig'ida tanlash lozimligi aniqlangan.

tolali materialning tozalash uskunalarning ishchi qismlari bilan o'zaro ta'sir jarayonini taxlili asosida to'g'ri oqimli tola tozalash uskunasi takomillashtirilgan, arrali silindr va tarash qurilmasi tezligi, arralar orsidagi oraliq masofani, tozalash samaradorligi va chiqindilarning toladorligiga bog'liqlik qonuniyatlari to'liq omilli tajriba usuli asosida ishlab chiqilgan, tola tozalash jarayonining matematik modeli

tuzilgan hamda uskunasi muqobil ko'rsatkichlari ko'p omilli regression modellarni tahlillari asosida aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

paxtani dastlabki ishlashda quritishning resurstejamkor texnologiya va uskunasi ishlab chiqilgan va uning yuqori samaradorligi isbotlangan;

ishlab chiqilgan takomillashgan uskunani qo'llash natijasida paxtani quritishda energiya va resurs sarfi kamayishiga erishilgan;

paxtalarni quritish uchun, mavjud quritish uskunalaridagi issiqlik sarfini kamaytirish hamda uskuna geometrik o'lchamlarini o'zgartirish asosida, energiya va resurstejamkor quritish uskunasi takomillashtirilgan va uning asosiy texnologik va konstruktiv ko'rsatkichlari aniqlangan;

paxta tolasini sifat ko'rsatkichlarini saqlagan holda tozalash samaradorligini oshirish maqsadida tola tozalash uskunasi takomillashtirilgan (FAP 00614) va uning asosiy texnologik va konstruktiv ko'rsatkichlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari ishonchliligi izlanishlarning yangi usul va o'lchash uskunalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy, amaliy tadqiqotlarning o'zaro adekvatligi, amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida paxtani quritish uskunasi hamda tola tozalash uskunalarini sinovlarining ijobiy natijalar va amaliyotga tadbiiq etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan texnologiyaning paxtani dastlabki ishlashda energiya, resurs va mehnat sarfi hamda issiqlik yo'qolishi kamayishi hisobiga quritish sifati yaxshilanishi, paxta tolasini tabiiy xususiyatlarini saqlagan holda tozalash samaradorligini oshirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa paxtani quritishni energiya va resurstejamkor texnologiyasi va uskunasi ishlab chiqilishi natijasida elektr energiya, havo va yoqilg'i sarfi minimal bo'lgan, tola sifati to'liq saqlangan holda quritish imkoniyatiga erishilganligi hamda yuqori samaradorlikka ega paxtani quritish uskunasi yaratilganligi hamda tola tozalash uskunasi takomillashtirilishi asosida tola tozalashda yuqori samaradorlikka erishilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Paxtani quritish uskunasi takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

resurstejamkor takomillashgan paxtani quritish uskunasi Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanidagi "Yangi to'rtko'l tolasini" paxta tozalash, Andijon viloyati Andijon tumanidagi "Andijon best seeds" MCHJ urug'lik chigit ishlab chiqarish korxonalarida joriy etilgan. ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2026 yil 6-martdagi №01/06-384-sonli ma'lumotnomasi). Natijada paxtani quritish jarayonida 50% issiqlik tejamkorligiga va bu orqali esa elektroenergiya sarfining ikki baravar kamayishiga, paxta tolasini sifat ko'rsatkichlari saqlab qolinishiga va tabiiy gazga bo'lgan ehtiyojni bartaraf etilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 12 ta xalqaro va 16 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarini e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 29 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya

Komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 16 ta va chet elda 10 ta maqola chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk Agentligining foydali modelga patenti olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 188 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot ob‘yektini va predmeti aniqlangan, tadqiqotning respublika fan va texnikasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati tadqiq etildi, tadqiqot natijalarini sinovdan o‘tkazish va ishlab chiqarishga joriy etish to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Adabiyotlar tahlili, tadqiqot maqsadi va vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonini taxlil paxtani quritish xamda tolasini tozalash bo‘yicha mavjud va xorijiy texnika va texnologiyalar tahlili keltirilgan. Paxtani quritish xamda tolasini tozalash samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Mavjud 2SB-10 rusumli paxtani quritish barabanning konstruksiyasini o‘rganish unda bir qator kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan, barabanning namlik bo‘yicha ish unumdorligi yuqori emas, baraban kurakchalari paxtani yetarli darajada tita olmaydi, baraban yuzasi bo‘yicha notekis taqsimlaydi, baraban hajmida bo‘sh zonalar paydo bo‘lib, samaradorlikni pasaytiradi, ortiqcha issiq havo sarfiga olib keladi.

Tahlillar hozirgi kunda Respublikamizda terilayotgan paxtaning 90 % ni yuqori navli paxtalar tashkil etishini va shu asosda paxta namligini yuqori bo‘lmasligini hisobga olgan holda, paxtani quritishning mavjud texnologiya va uskunalar juda ko‘p harajatligi va paxtani quritish uchun resurstejamkor quritish texnologiyasi va uskunasi yaratish lozimligini ko‘rsatdi.

Tola tozalash jarayoni paxtani dastlabki ishlash jaryonining yakunlovchi muhim bosqichi bo‘lib, uning samarasi tola sifatiga juda katta ta‘sir ko‘rsatadi. So‘ngi yillarda terilayotgan paxtalarda, mashina terim paxtasi salmog‘ining ko‘payishi paxta tarkibidagi mayda iflosliklarni oshishiga olib kelmoqda. Ma‘lumki mayda iflosliklar asosan tola tozalash jarayonida ajratiladi. Bu esa o‘z navbatida tola tozalash jarayoni samaradorligi oshirishni taqozo etmoqda. Tola tozalash jarayoni hamda tozalagichlarning mavjud konstruksiyalarini taxlil qilgan xolda tolalarning tabiiy xususiyatlarini saqlab qoluvchi, yuqori tozalash samaradorligini ta‘minlaydigan yangi tamoyillarini izlash zarurligi aniqlandi.


Dissertatsiya ishining **“Takomillashgan quritish texnologiyasi va uskunasi yaratish bo‘yicha tadqiqotlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida paxtani quritishda issiqlik agentini yo‘qolishini tadqiqi keltirilgan. Hozirgi kunda respublikamizdagi

paxta tozalash korxonalarida paxtani quritish uchun 2SB-10 va SBO rusumli quritish barabanlari ishlatilmoqda.

Barabanli quritkichlarni issiqlik bilan ta'minlash uchun tabiiy gaz bilan ishlaydigan ICH-1,9 rusumli issiq havo ishlab chiqaruvchi uskunalardan foydalanilmoqda. Quritish barabanlariga harorati 70°C dan 280°C gacha bo'lgan 15000 dan 24000 m<sup>3</sup>/soat hajmida issiq havo beriladi. Berilayotgan havodagi issiqlik miqdori 6,7 mln.kDj gacha bo'ladi.

Quritish barabanlarini texnik tasnifnomasida paxta bo'yicha ish unumdorligi 10 t/soat bo'lganda, paxtadan 1 kg namlik ajratib chiqarish uchun issiqlik sarfini 8400 kJ/kg deb ko'rsatilgan bo'lsada, amalda 7-8 tn/soat ish unumdorligida ishlab 1 kg namlik ajratishga 24000 kDj gacha issiqlik sarf bo'lmoqda. Tahlillar quritish tannarxi ko'proq issiqlik sarfini yuqoriligi va undan foydalanish darajasi pastligini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilarni qayd etgan holda quritish barabanlarida issiqlik sarfi tahlil qilindi. Tajriba "Real agro cotton" UK ga qarashli "O'zbekiston" paxta tozalash korxonasida o'tkazildi. Tajriba issiqlik ishlab chiqaruvchi generatorining tutun so'rgichidan uzatilayotgan issiq havo harorati issiq havo quvurini boshlanish A nuqtasida va barabanga kirish B nuqtasida termoparali temperatura o'lchash moslamasi yordamida quvur ko'ndalang kesimini bir necha nuqtalarida o'lchanib, o'rtacha arifmetik qiymati aniqlandi. So'ngra quvur yuzasi harorati ham qayd etilib A,B,B nuqtalarda aniqlandi (1-rasm). Tajribalar besh qaytalikda o'tkazildi. O'tkazilgan tajriba natijalari 2 va 3-rasmlarda keltirilgan.




1-issiqlik ishlab chiqaruvchi uskuna, 2-ventilyator, 3-issiqlik havo uzatish tizimi, 4-quritish barabani.

**1-rasm. "O'zbekiston" paxta tozalash korxonasidagi issiqlik uzatish tizimi sxemasi**

Issiq havo harorati diametri  $d_{tr}=0,73$  m, uzunligi  $l=13$  m, bo'lgan truba, uni boshlang'ich nuqtasi A da issiq havo harorati  $t_x=205,4$  °C bo'lganda, 13 m masofani bosib o'tgandan so'ng harorati, quvurni qizdirish va uni yuzasi orqali issiqlik atrof-muhitga tarqalishi hisobiga 183,8 °C ga, ya'ni 21,6 °C ga pasaygan. A nuqtadagi boshlang'ich harorati 163,0 °C bo'lgan havoni 13 m, dan keyingi harorati 141,8 °C ga pasaygan 21,2 °C  $t_x=104$ °C da esa 93,1% ga, ya'ni 10,9 °C ga pasaygan.

Ushbu holat issiq havo quvurida ahamiyatli darajada issiqlik yo'qalayotganini ko'rsatadi. Issiq havo quvurini qizish haroratini tahlili A nuqtada quvur yuzasi, issiq

havo harorati 104 °C, 163 °C va 205,4 °C bo'lganda, mos ravishda 80,5 °C, 112,9 °C va 137,1 °C ni tashkil etib, quvurni B va V nuqtalarida esa mos ravishda 68,7 °C, 98,7 °C, 117,7 °C va 62 °C, 86,6 °C, 107,1 °C dan iborat bo'ldi (2-rasm). Natijalar havo berish quvurni qizish harorati yuqori ekanligini va uning harorati quvur uzunligi bo'yicha pasayib borishini ko'rsatdi.



**Issiq havo temperaturasi, °C**

I-issiqlik ishlab chiqaruvchi uskunada, II-barabanga kirishda

**2-rasm. Issiq havo haroratini pasayish gistogrammasi**

3-rasmdagi olingan egri chiziqlarni regressiya tenglamalari quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

Issiq havo harorati  $t_x=104^{\circ}\text{C}$  da

$$y_1=0,027x^2-1,778x+80,5 \quad (1)$$

$t_x=163^{\circ}\text{C}$

$$y_2=0,021x^2-2,335x+112,9 \quad (2)$$

$t_x=205,4^{\circ}\text{C}$

$$y_3=0,058x^2-3,023x+137,1 \quad (3)$$

bunda,  $x$ -issiqlik havo quvur uzunligi, m.

Issiq havo quvurida yo'qotilayotgan issiqlik miqdori quyidagi formula yordamida aniqlanadi.


$$g_y = L_x \cdot C_x \cdot \Delta t_x \quad (4)$$

bu yerda,  $L_x$  – barabanga berilayotgan issiq havo miqdori.

$C_x$  – issiqlik sig'imi.

$\Delta t_x$  –issiqlik ishlab chiqaruvchi uskunadan keyin va barabanga kirishdagi issiq havo harorati, °C.

1-jadvalda (1) va (4) – formulalar yordamida hisoblangan issiqlik yo'qotilish miqdorlari keltirilgan. 1-jadvalni tahlili barabanga issiqlik generatoridan berilayotgan issiqlikni ahamiyatli darajadagi qismi quvurlar yuzasidan atrof-muhitga chiqib ketishi hisobiga yo'qotilishini ko'rsatdi va bu yo'qotilish issiq havo harorati oshgan sayin ko'payishi aniqlandi.



Issiq havo harorati, °C; 1.  $t_x=104^{\circ}\text{C}$ ; 2.  $t_x=163^{\circ}\text{C}$ ; 3.  $t_x=205,4^{\circ}\text{C}$ ;  
**3-rasm. Havo haroratini quvur uzunligi bo'yicha o'zgarishi**

Quvur devorlarini qizdirishga uncha katta bo'lmagan issiqlik sarflansada (6047,2 kDj dan 12077,5 kDj gacha), uni yuzasidan yo'qotilayotgan issiqlik miqdori juda yuqori bo'lib, 196920 kDj/soat dan 388800 kDj/soat gacha tashkil etdi.

#### 1-jadval

#### Quritish barabaniga berilayotgan issiqlikni yo'qotilishi

No	Issiq havoni boshlang'ich harorati, °C	Umumiy issiqlik yo'qotilishi, $g_y$ kDj/soat	Quvur yuzasidan atrof-muhitga ajralayotgan issiqlik miqdori, $g_2$ kDj/soat
1	104,0	196920	21542,4
2	163,0	381600	30324,6
3	205,4	388800	36913,8


Ular umumiy berilayotgan issiqlik miqdoriga nisbatan ulushi quyidagicha topiladi.

$$K = \frac{g_y}{Q_{um}} \cdot 100 = \frac{19692}{L \cdot C \cdot t_x} \cdot 100 = \frac{19692}{18000 \cdot 1 \cdot 104} \cdot 100 = 10\% \quad (5)$$

Tajribada issiqlik uzatish tizimi tashqi yuzasi harorati aniqlandi. Issiqlik uzatish quvurini uchta nuqtasida, boshlang'ich, o'rta va oxirida uni yuzasini haroratlari o'lchandi. 4-rasmda havo uzatish quvurini qizish haroratlari keltirilgan bo'lib, ko'rinib turibdiki quvurni qizish harorati yuqori.

Issiq havoni boshlang'ich harorati  $t_x=205,4^{\circ}\text{C}$  bo'lganda quvur uzunligi bo'yicha mos holda  $137,1^{\circ}\text{C}$ ,  $117,7^{\circ}\text{C}$ ,  $107,1^{\circ}\text{C}$  ga pasaygan. Issiq havo harorati  $t_x=163^{\circ}\text{C}$  bo'lganda, mos ravishda  $112,9^{\circ}\text{C}$ ,  $98,3^{\circ}\text{C}$ ,  $86,1^{\circ}\text{C}$  ga pasaygan,  $t_x=104^{\circ}\text{C}$  da esa  $80,5^{\circ}\text{C}$ ,  $68,7^{\circ}\text{C}$ ,  $62^{\circ}\text{C}$  ga pasaygan. Olingan natijalar issiq havo uzatishda issiqlik yo'qolishi yuqori ekanligini ko'rsatdi.

4 va 5-rasmlarda issiq havo quvurni qizishiga sarflangan issiqlik va quvur yuzasida atrof-muhitga ajralib chiqqan issiqlik miqdorlari keltirilgan.



**Issiq havo harorati, °C:**

1. Boshlang'ich qismida 2.6,5-metrda  
3.13-metrda. I.  $t_x=205,4$ °C, II.  $t_x=163$ °C,  
III.  $t_x=104$ °C


#### **4-rasm. Quvur yuzasini qizish harorati o'zgarishi**

Tajribalar davomi "Real agro cotton" UK ga qarashli "Qorasuv" paxta tozalash korxonasida ham davom ettirildi. O'tkazilgan tajribalarda issiqlik ishlab chiqarish agregatidan quritish barabaniga berilayotgan issiqlik miqdori tahlil qilindi. Issiqlik ishlab chiqarish agregatidan boshlang'ich  $104,4$ °C harorat berilganda quritish barabaniga kirish nuqtasida issiqlik agenti harorati termopara uskunasi o'lchanganda harorati  $90,02$ °C gacha pasaygani aniqlandi. Tajriba  $155,3$ °C da amalga oshirilganda esa quritish barabaniga issiq havo yetib borganida uni harorati  $135,9$ °C gacha tushgan bo'lsa,  $193,1$ °C da tajribalar amalga oshirilganda esa harorat  $171,2$ °C ga tushgani aniqlandi.


Quritish barabaniga uzatilayotgan issiq havo harorati quvurning diametri  $d_{tr}=0,75$  m, uzunligi  $l=12$  m bo'lib, uni boshlang'ich nuqtasida issiq havo harorati  $t_x=104,4$  °C, bo'lganda 12 m masofani bosib o'tgandan so'ng harorati, quvurni qizdirish va uni yuzasidan issiqlikni atrof-muhitga tarqalishi hisobiga  $90,02$  °C gacha, ya'ni  $14,38$  °C ga pasaygan. Boshlang'ich harorati  $155,3$  °C bo'lgan issiqlik agenti barabanga kirish nuqtasida harorati  $135,9$  °C pasaygan  $19,4$  °C ga, tajriba  $193,1$  °C dan barabanga kelganda  $171,2$  °C ga tushgan ya'ni  $21,9$  °C ga issiqlik agenti harorati kamaygan (6-rasm).

O'tkazilgan tajribalar natijalaridan issiqlik quvurlari yuzasining qizishi ahamiyatli darajada bo'lib, barabanga uzatilayotgan issiq havoning ma'lum qismi tashqi muhitga ajralib chiqayotganini ko'rishimiz mumkin. Paxtani quritish barabanlariga berilayotgan issiqlikni sezilarli qismi yo'qotilayotgani, natijada issiq havo harorati yo'qolishi kuzatildi.

Issiqlik yo'qotilishi asosan, havo uzatish tizimi yuzasidan atrof-muhitga tarqalishi hisobiga vujudga kelayotgani tajribalarda ma'lum bo'ldi, issiqlik yo'qolish ulushi 10% dan 15% gacha ekanligi amaliy tajribalar davomida aniqlandi.



**5-rasm. Issiqlik uzatish quvurni qizishiga sarflangan issiqlik**




I-issiqlik agregatida, II-quritish barabaniga kirishda  
Issiq havo harorati, °C; 1.  $t_x=104,4^{\circ}\text{C}$ ; 2.  $t_x=155,3^{\circ}\text{C}$ ;  $t_x=193,1^{\circ}\text{C}$ ;

### 6-rasm. Qorasuv PTK da quritish jarayoniga berilayotgan issiq havo haroratini o'zgarish gistogrammasi

Ushbu xolatlarni inobatga olgan xolda paxtani quritishda energiya tejamkor yangi quritish uskunasi taklif etildi.

Takomillashgan paxtani tasmali quritish uskunasi (7-rasm) quyidagicha ishlaydi:



- 1- separator , 2 - ta'minlovchi valiklar, 3 - yo'naltirgich, 4 - tasmani harakatga keltiruvchi valiklar, 5 - paxtani quritish uskunasining paxta chiqish novi, 6 – tasma, 7 –issiqlik uzatish tizimi, 8 – tasmani ko'tarib turuvchi valiklar, 9 – quritish uskunasini issiqlik bilan ta'minlovchi PGS-10 uskunasi, 10 – quritish uskunasining korpusi, 11 – issiqlik kirish joyga o'rnatilgan setka.

### 7-rasm. Takomillashgan paxtani quritish uskunasining qirqim chizmasi

Paxta quritish uskunasiga separator (1) orqali ta'minlovchi valiklar (2) yordamida aylanib turuvchi tasmaga tushadi. Paxtani tasma (6) yuzasiga tashlab beradi. Paxta tasma yuzasida harakatlanayotganda, quritish uskunasiga uzatish quvuridan (7) kirgan issiq havo tasma yuzasidagi nam paxta bilan issiqlik almashish jarayoni boshlanadi va shuning natijasida paxtani qizishi va undagi namlikni bug'lanishiga olib keladi.

Paxta birinchi tasmaning oxiriga borganida tasmaning aylanishi hisobiga quyida joylashgan tasma yuzasiga tushadi. Shundan so‘ng paxta ikkinchi qatordagi tasma bilan qarama qarshi tarafga harakatlanadi va u yerda yuqoridagi tasmada bo‘lgani kabi paxtani qurish jarayoni amalga oshiriladi.

Xuddi shunday jarayon pastki qatorlardagi tasmalarda ham qaytariladi. Tasmalar ularni harakatga keltiruvchi (4) valiklar yordamida harakatga keltiriladi. Jarayon yakunida quritilgan paxta nov (5) orqali quritish uskunasidan chiqarib yuboriladi. Ishlatilgan issiq havo quritish uskunasidan chiqarish quvuri orqali tashqariga chiqarib yuboriladi. Takomillashgan quritish uskunasining ko‘rinishi 8-rasmda keltirilgan.




**8-rasm. Takomillashgan quritish uskunasining ko‘rinishi**

Paxtani quritish darajasini, tezligini, paxtani quritish uskunasini ichida bo‘lish vaqtini paxtani quritish uchun yuborilayotgan issiq havo haroratini, tasmani harakat tezligini o‘zgartirish yordamida sozlash mumkin.

Ushbu quritish uskunasini qo‘llash paxtani quritishda resurs tejamlilikka hamda paxtani sifat ko‘rsatkichlarini saqlanishiga olib keladi.


Dissertatsiya ishining **“Takomillashtirilgan quritish uskunasini nazariy va tajriba sinovi tadqiqi”** deb nomlangan uchinchi bobida takomillashgan quritish uskunasining konstruktiv ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan bo‘lib, jumladan paxta yuzasini vaqt davomida qizish jarayonini o‘rganish bo‘yicha tajriba o‘tkazilgan. Tajribalarda takomillashgan quritish uskunasidagi turli hil qalinliklaridagi paxta qatlamiga turli haroratdagi issiq havo berilganda, paxta yuzasini vaqt davomida qizish ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tajriba natijalari quyidagi grafiklarda keltirilgan ( 9,10, 11, 12, 13, va 14-rasmlar).

Bundan tashqari takomillashtirilgan quritish uskunasining ish unumdorligi va tasma sarfi hisoblandi. Hisoblar, takomillashtirilgan quritish uskunasining ish unumdorligi 4, 5 va 6 t/soat bo‘lishi uchun, quritish uskunasining ishchi valini aylanishlar soni tegishli 13 ayl/daq ga, 16 ayl/daq ga va 19 ayl/daq ga teng bo‘lishi kerakligi aniqlandi.




1-shaxtaning boshlang'ich qismi;  
2-shaxtaning oxirgi qismi

**9-rasm. Paxta qatlami qalinligi 0,05 m bo'lganda unga 50°C issiq havo berilganda vaqt davomida haroratining o'zgarishi**




1-shaxtaning boshlang'ich qismi;  
2-shaxtaning oxirgi qismi

**10-rasm. Paxta qatlami qalinligi 0,05 m bo'lganda unga 100°C issiq havo berilganda vaqt davomida haroratining o'zgarishi**




1-shaxtaning boshlang'ich qismi; 2-shaxtaning oxirgi qismi

**11-rasm. Paxta qatlami qalinligi 0,1 m bo'lganda unga 50°C issiq havo berilganda vaqt davomida haroratining o'zgarishi**




1-shaxtaning boshlang'ich qismi;  
2-shaxtaning oxirgi qismi

**12-rasm. Paxta qatlami qalinligi 0,1 m bo'lganda unga 100°C issiq havo berilganda vaqt davomida haroratining o'zgarishi**



1-shaxtaning boshlang'ich qismi;  
2-shaxtaning oxirgi qismi  
**13-rasm. Paxta qatlami qalinligi 0,15 m bo'lganda unga 50°C issiq havo berilganda vaqt davomida haroratining o'zgarishi**



1-shaxtaning boshlang'ich qismi;  
2-shaxtaning oxirgi qismi  
**14-rasm. Paxta qatlami qalinligi 0,15 m bo'lganda unga 100°C issiq havo berilganda vaqt davomida haroratining o'zgarishi**

Tavsiya etilayotgan takomillashgan quritish uskunasi konstruktsiyasini, ishlashini o'rganish maqsadida mavjud yondashuvlar va tajribalar o'tkazish usullarini qo'llagan holda to'liq omilli tajriba o'tkazildi.

Tadqiqot o'tkazishda quyidagi asosiy ko'rsatkichlar hisobga olindi:

Kirish ko'rsatkichlari.

1. Quritish jarayoniga berilayotgan paxtani boshlang'ich namligi  $X_1$ — ko'rsatkichlar, (%).

2. Quritish uskunasi berilayotgan issiqlik ko'rsatkich  $X_2$ , °C.

3. Quritish uskunasi ish unumdorligi  $X_3$ , t/soat.

Tajribalarni o'tkazishda uskunani ishga tushirish paytidagi  $Y_1$ -quritish samaradorligi chiqish parametri sifatida qabul qilindi (2-3-jadval).

**2-jadval**

**Tajribaning rejalashtirish sharti**

№	Omilning nomi, belgisi	Kodlash-tirilgan belgisi	Faktorning haqiqiy qiymatlari			O'zgarish oralig'i
			-1	0	+1	
1	Quritish jarayoniga berilayotgan paxtani boshlang'ich namligi, %	$X_1$	10	12	14	2
2	Quritish uskunasi berilayotgan issiqlik harorati, °C	$X_2$	70	75	80	5
3	Quritish uskunasi ish unumdorligi, t/soat	$X_3$	4	5	6	1

**Rejalashtirish matrisasi, quritish samaradorligi uchun o'tkazilgan tajriba va hisobiy natijalar**

№.	X <sub>1</sub>	X <sub>2</sub>	X <sub>3</sub>	$\bar{y}_{i1}$	$\bar{y}_{i2}$	$\bar{y}_{i3}$	$\bar{y}_u$	$S_u^2$
1	-	-	-	8.2	8.1	8	8.1	0.0100
2	+	-	-	9	9.2	9.3	9.17	0.0233
3	-	+	-	7.9	8	7.8	7.9	0.0100
4	+	+	-	8.9	8.7	9	8.87	0.0233
5	-	-	+	9.1	9.2	9.3	9.2	0.0100
6	+	-	+	9.6	9.8	9.9	9.77	0.0233
7	-	+	+	8.4	8.5	8.6	8.5	0.0100
8	+	+	+	9.4	9.5	9.6	9.5	0.0100

Turli xil paxta namligi, quritish jarayoniga berilayotgan issiq havo harorati va ish unumdorligini tajribalarda (kiruvchi omillarning) ta'sirini tajriba asosida o'rganamiz. Buning uchun rejalashtirish matritsasi asosida har bir sharoitda 3 marotaba takroran tajribalar o'tkazamiz. Bu holda tajribalar soni  $N = 2^3 = 8$   $N = 2^3 = 8$ , takrorlanishlar soni  $m = 3$  ni hisobga olsak, umumiy tajribalar soni  $N \cdot m = 24$  bo'ladi.

Tadqiqotda tajribani matematik rejalashtirishning ko'p omilli ikkinchi tartibli markaziy kompozitsion usuli qo'llanilgan bo'lib, bu paxtani quritish jarayonining o'rganilayotgan qismini mukammal tadqiq qilish va takomillashtirish imkonini beradi.

Matematik modelning oxirgi ko'rinishini olish uchun koeffitsiyentlarni ahamiyatligini Styudent kriteriyasining formulalaridan foydalangan holda tekshirildi.

Olingan modelning adekvatligi haqidagi gipotezani tekshirish uchun Fisher mezonidan foydalandik.

Matematik statistik qayta ishlash natijasida olingan regressiya tenglamalari adekvat va tajriba sinov natijalari bilan mos keldi.

Texnologik jarayonning turli xil ish unumdorligida, ishlash rejimlarida paxtani quritish jarayoniga ta'sirini aniqlash imkonini beruvchi regression modeli olindi.

$$y_R = 8.88 + 0.45 \cdot x_1 - 0.18 \cdot x_2 + 0.36 \cdot x_3 - 0.06 \cdot x_1 \cdot x_3 + 0.067 \cdot x_1 \cdot x_2 \cdot x_3$$

Taklif qilinayotgan quritish uskunasi quritish jarayoniga berilayotgan paxtaning boshlang'ich namligi, quritish uskunasiga berilayotgan issiqlik harorati, hamda quritish uskunasining ish unumdorligini hisobga olgan holda, uskunaning ishlash rejimlari ishlab chiqildi.

Dissertatsiya ishining **“Paxta tolasini tozalash jarayonini nazariy tadqiqi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida paxta tolasining tola tozalagichlarning ishchi

qismlari bilan o‘zaro ta’siri o‘rganilgan. Tola tozalash mashinalarining elementlari va tezlik rejimlarini tadqiq qilishda tolni shikastlamaydigan va uni iflos aralashmalardan maksimal darajada tozalaydigan mashinalarni yaratish uchun tolalar tutamining ishchi qismlarga urilish kuchini, shuningdek, ishchi qismlarning tezligini bilish kerak.

Paxta tolasining tozalagich ishchi qismlari bilan zarbiy ta’sirlashuv jarayoni juda murakkab bo‘lib, ishchi qismning tezligi, uning konstruksiyasi, paxta tolasining fizik-mexanik xususiyatlari kabi ko‘plab omillarga bog‘liq.

Ma’lumki, paxta tolalari tozalagichlarning ishchi qismlari bilan zarbiy o‘zaro ta’sirlashganda tola deformatsiyalanadi. Bunda tolaning to‘liq deformatsiyasi elastik va plastik deformatsiyalardan iborat bo‘ladi. Elastik deformatsiyaning sababi shundaki, tashqi kuch ta’sirida paxta tolasini tashkil etuvchi polimer zarrachalarining qo‘shni bo‘g‘inlar va molekulalardagi atomlar orasidagi o‘rtacha masofalari biroz o‘zgaradi, molekulalararo va atomlararo bog‘lanishlar saqlanib qoladi, valent burchaklar esa ortadi. Elastik deformatsiya har doim deformatsiyalanuvchi jism hajmining o‘zgarishi bilan bog‘liq.

Elastik deformatsiya tashqi kuch ta’sirida tolni tashkil etuvchi polimer makromolekulalarining konfiguratsiyasi o‘zgarishi va qayta guruhlanishi natijasida yuzaga keladi. U ma’lum vaqt ichida sodir bo‘ladi.

Plastik deformatsiya esa tashqi kuch ta’sirida makromolekula zvenolarining ancha uzoq masofalarga qaytmas siljishi natijasida yuzaga keladi xamda tolalarning shikastlanishi va oqibatda to‘qimachilik korxonalarida iplarning uziluvchanligi ortishi olib keladi. Shuning uchun yuqori tezlikli tozalash uskunalari loyihalashda tozalagichning ishchi qismlari bilan o‘zaro ta’sirlashganda tolaning plastik deformatsiyalanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun tozalagich ishchi qismlarining tezliklarini to‘g‘ri aniqlash juda muhimdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, tolaning shikastlanishini bartaraf etish maqsadida paxtani qayta ishlashda zarbiy jarayonlar tolaning elastik-plastik yoki plastik deformatsiyalariga olib kelmasligi kerak.

Plastik deformatsiya boshlanadigan to‘qnashuv tezligini quyidagi ifodadan aniqlanishi mumkin:

$$g = \frac{\sigma_y}{\sqrt{E \cdot \rho}} \quad \text{m/s} \quad (6)$$

bu yerda  $g$  - jismning plastik deformatsiyasi boshlanadigan to‘qnashuv tezligi, m/s;

$E$  - elastiklik moduli, H/mm<sup>2</sup>;  $\rho$  - zichlik,  $\frac{\text{H} \cdot \text{s}^2}{\text{m}^4}$ . Paxta tolasini uchun

$$E = 5250 \text{ H/mm}^2,$$

$$\rho = 1,2 \cdot 10^3 \frac{\text{H} \cdot \text{s}^2}{\text{m}^4} \quad (7)$$

$\sigma_y$  - jismning elastiklik chegarasi, H/mm<sup>2</sup>.

Adabiyot manbalaridan paxta tolasining elastiklik chegarasini aniqlash mumkin, u quyidagilarni tashkil qiladi:

$$\sigma_y = 144 \text{ H/mm}^2$$

Barcha ma'lumotlarni hisobga olgan holda, plastik deformatsiya boshlanadigan tola uchun to'qnashuv tezligini hisoblash mumkin.


U quyidagiga teng bo'ladi:

$$\vartheta = \frac{14,4}{\sqrt{5250 \cdot 1,2 \cdot 10^3}} = 57,6 \text{ m/s}$$

Aniqlangan tezlik qiymati tozalagich ishchi organi tezligining yuqori chegarasini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tola tozalash jarayonida ishchi organ arra tishining qamrash va ushlab turish qobiliyati muhim omil hisoblanadi. Ishchi qismlarning qamrash qobiliyati ularning soniga, shuningdek, ishlov berilayotgan materialni va ishchi qismning o'zini uzatish tezligi parametrlariga, ushlab turish qobiliyati esa tish old qirrasining qiyalik burchagiga bog'liq.

18-rasmda ishchi qism ushlab turgan tola tutamiga qo'yilgan asosiy kuchlar ko'rsatilgan.



**18-rasm Tola tutamini arra tish va kolosniklar orasi bo'ylab harakatlanish sxemasi**

Tolani materialni tishi bilan ushlab turish shartini quyidagicha yozish mumkin:

$$F + P_c \sin \gamma \geq P_u^u \cos \gamma, \quad (8)$$

yoki  $\cos \gamma$  ga bo'lib va hisoblab

$$F = \mu N = \mu P_c \cos \gamma + \mu P_u^u \sin \gamma, \quad (9)$$

hosil qilamiz:

$$\mu P_c + \mu \frac{mV^2}{R} \operatorname{tg} \gamma + P_c \operatorname{tg} \gamma \geq \frac{mV^2}{R}, \quad (10)$$

bu yerda  $P_c = cV^2$ ,

$P_c$ -havoning qarshilik kuchi;

$c$ -havoning qarshilik koeffitsiyenti;

$P_u^u$  - markazdan qochma inersiya kuchi;

$F$ - tolaning arra tishiga ishqalanish kuchi;

$N$ - arra tishining tolagaga normal reaksiyasi;

$\mu$ - tolaning arra tishiga ishqalanish koeffitsiyenti;

$m$ - tola massasi;

$V$ - arrali barabanning aylanma tezligi;


$R$ - arrali baraban radiusi;

$P_k^u$  - Koriolis inersiya kuchi ( $P_k^u=0$ , chunki tola zarrachasining arra tishi bo'ylab xarakatining nisbiy tezligi nolga teng).

U holda arra tishi old qirrasining arrali baraban radiusiga qiyalik burchagi  $\gamma$ , tolani ilashtirish va ushlab turishni ta'minlaydi va quyidagicha aniqlanadi:

$$\gamma = \operatorname{arctg} \left[ \frac{\frac{m}{R} - \mu \cdot c}{\frac{\mu \cdot m}{R} + c} \right] = \operatorname{arctg} \left[ \frac{m - R \cdot \mu \cdot c}{\mu \cdot m + R \cdot c} \right] \quad (11)$$

(11) ga asosan ( $c=1,73 \cdot 10^{-4} \text{ kgs}^2/\text{m}^2$  deb hisoblaymiz,  $\mu=0,2$ ) old burchakning tola tutami massasiga bog‘liqlik grafigi qurilgan (19-rasm), u tola tutamining massasi qancha katta bo‘lsa, ishchi organ shuncha bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Agar arra tishi qirrasining tolaga tegish uzunligi kamida 2 mm bo‘lsa, tola tutamini arra tishiga yaxshi ilashishi ta‘minlanadi.



**19-rasm. Arrali baraban tishi old qiyalik burchagining tola tutami massasiga bog‘liqlik grafigi**

Arrachali baraban tezligi va arra tishlari soni, arra tishining aylana bo‘ylab o‘rnatish qadami  $N_1$  nisbatini aniqlash uchun quyidagilarni ko‘rib chiqamiz. Baraban aylanasini bo‘ylab  $Z$  ta tishi mavjud

bo‘lsin, u holda arra tishlarning uzatilayotgan tolaga yaqinlashishi orasidagi vaqt quyidagicha bo‘ladi:

$$T = \frac{60}{n \cdot Z} = \frac{H_1}{V_2} \quad (12)$$

bu yerda:

$n$  – arra tishli barabanning aylanish chastotasi;

$V_2$ - arra tishli tezligi;

$H_1$ - arra tishli o‘rnatish qadami;

$Z$  - arra tishlari soni.

Bu vaqt ichida uzatilayotgan tola radial yo‘nalishda qamrash qobiliyati bilan tavsiflanadigan  $y_{\max}$  miqdoriga chuqurlashadi:

$$y_{\max} = V_1 \frac{60}{n \cdot Z} \sin \alpha \quad (13)$$

bu yerda  $V_1$  - materialni uzatish tezligi;

$\alpha$  -  $V_1$  va  $V_2$  tezlik vektorlari orasidagi burchak

$y_{\max}$  berilganda, arra tishlar soni aniqlanadi:

$$Z = V_1 \frac{60}{n \cdot y_{\max}} \sin \alpha,$$

Arrachali arra tishlarini baraban ostiga o‘rnatilgan kolosniklarni qadamini topish uchun, tola tutamini arra tishi bo‘ylab xarakatlanish sxemasini ko‘rib chiqamiz (20-rasm).


Kuchlarni koordinata o‘qlariga proyeksiyalab, tola tutamining arra tishi bo‘ylab harakati differensial tenglamasini olamiz.

$$m\ddot{x} = P_y^u \cos \gamma - \mu(P_y^u + P_c \cos \gamma - P_y^u \sin \gamma) - P_c \sin \gamma \quad (14)$$

Tolaning  $V_r$ , arra tishi bo‘ylab harakatining nisbiy tezligi kichik arra tishining tezligidan bir tartibga kam ekanligini e‘tiborga olib, Koriolis inersiya kuchini e‘tiborga olmaymiz.

(14) tenglamani ikki marta integrallab, tola tutamining arra tish bo‘ylab xarakatini olamiz:

$$x = \frac{P_u^u \cos \gamma - \mu P_c \cos \gamma + \mu P_u^u \sin \gamma - P_c \sin \gamma}{2m} \cdot t^2 \quad (15)$$



## 22-rasm. Tola tutamini arra tishi bo‘ylab xarakatlanish sxemasi.

Tishning kolosniklar qadamini bosib o‘tish vaqti quyidagiga teng bo‘lishini hisobga olsak,

$$t = \frac{\alpha_k}{\omega},$$

bu yerda  $\alpha_k$ - kolosniklar joylashuvining burchak koordinatasi.

Kolosniklarni joylashtirish qadami quyidagicha aniqlanadi:

$$H_k = \alpha_k R_1 = R_1 \omega \sqrt{\frac{2m X}{P_u^u \cos \gamma - \mu P_c \cos \gamma + \mu P_u^u \sin \gamma - P_c \sin \gamma}} \quad (16)$$

bu yerda  $R_1$  - kolosnikli panjarada kolosniklar qirralarining joylashish yoyi radiusi.

Quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lgan holda hisob-kitobni amalga oshiramiz:

$$m = 1.5 \cdot 10^{-5} \text{ kg}, \quad V = 15 \text{ m/s}, \quad S_v = 1, \quad R = 0.155 \text{ m},$$

$$R_1 \approx R, \quad \mu = 0.3, \quad \gamma = 10^\circ, \quad \omega = 95 \text{ s}^{-1}.$$

$x = x_{dop} = 0.001 \text{ m}$  – bir kolosnikdan ikkinchisiga o‘tishda siljish bo‘lmasligi va tola tushib ketmasligi uchun tola tutamining tish bo‘ylab ruxsat etilgan xarakatlanishi.

$$P_c = cV^2; \quad P_u^u = \frac{mV^2}{R};$$

$$S = S_v \frac{\gamma v}{2g} F_m, \quad (17)$$

bu yerda:

$S_v$  - tola zarrachasining qarshilik koeffitsiyenti;

$\gamma$  - zarrachaning zichligi ( $\gamma = 30 \text{ kg/m}^3$ );

$g$  – erkin tushish tezlanishi ( $g = 9.8 \text{ m/s}^2$ );

$F_m$  - tola zarrachasining midel kesimi ( $F_m = 0.9 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2$ );


$m$  - tola zarrachasining massasi;

$\mu$  - tolaning tishga ishqalanish koeffitsiyenti.

Bu ma'lumotlarni (16) ga qo'yib, quyidagiga ega bo'lamiz:  $H_k = 0,035$  m. Demak, kolosniklar qadamini  $H_k = 30 \div 35$  mm oralig'ida tanlash lozim.

Olingan natijalar yangi tola tozalagichlarni ishlab chiqishda yoki takomillashtirishda qo'llanilishi mumkin.

